



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 3950,3 mlrd.so'm ni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 143,3 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 41,3 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1558,7 ming.so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida Surxondaryo viloyatidastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3950,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta hajm savdo xizmatlari(1632,1 mlrd.so'm)ni tashkil etadi.

## Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Shu bilan birga, savdo xizmatlari hajmi(1632,1mlrd.so'm),transport xizmatlari hajmi (706,6mlrd. so'm),moliyaviy xizmatlar (463,8mlrd. so'm), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi(253,3mlrd. so'm) hamoshdi.


Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 15,6 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 68,5 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida korxonalar va tashkilotlar jamisonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqonxo'jaliklaridan tashqari) % da




### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi,%



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (112,7 %), Sherobod (108,0 %), Termiz tumanida (107,6 %), Qiziriq (107,1 %) tumanlarida qayd etildi.

### 2018 yil yanvar- sentyabr oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Sariosiyo (104,3 %), Muzrabot (105,3 %), Sho'rchi(105,8 %), Boysun (106,2 %), Uzun(106,8 %) tumanlarida kuzatildi.

**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	<b>Hajmi, mlrd.so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %</b>
<b>Surhondaryo viloyati</b>	<b>3950.3</b>	<b>109,0</b>
Termiz sh	1638,7	112,7
tumanlar:		
Oltinsoy	131,3	106,7
Angor	128,5	106,9
Boysun	108,7	106,2
Muzrabod	102,8	105,3
Denov	609,8	107,0
Jarqurgon	184,2	105,9
Qumqurgon	180,4	106,7
Qiziriq	125,5	107,1
Sariosiyo	172,3	104,3
Termiz	97,8	107,6
Uzun	134,4	106,8
Sherobod	167,9	108,0
Shurchi	168,0	105,8

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahrida (1638,7mlrd.so'm), Denovtu maniga (609,8mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Termiz (97,8 mlrd.so'm), Muzrabod (102,8mlrd.so'm) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Termiz shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi 41,5 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Denov tumani (15,4 %), Jarqurgon (4,7 %), Qumqurgon (4,6 %) va Sariosiyo (4,4 %) tumanlari tashkil etadi.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shaxarvatumanlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi**  
(jami hajmga nisbatan), %



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Termiz tumanida (2,5 %), Muzrabod (2,6 %), Boysun (2,8 %), Qiziriq (3,2 %) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar- sentyabr oylarida aholi jonboshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1558,7 ming.so'mga tengbo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 106,7 % ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha aholi jonboshiga ko'rsatkichlar




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida – 11356,1ming.so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish 106,7 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng pastko'rsatkichi Muzrabot tumanida – 753,2ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (43,3 %), talim sohasidagi xizmatlar (30,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (26,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (12,9 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (11,8 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

### 2018 yi iyanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -143,3 %, talim sohasidagi xizmatlar (130,0 %), ijara xizmatlarning o'sish sur'ati -120,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari -112,9 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar -111,8 % nitashkil etgan.

**Surxondaryo viloyati**

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: P.Eshboeva

Tel: (71) 230-85-84